




KIBRDAN QAYTISH.

Isaqov Ziyodulloxon Sadullajon o'g'li
Qo'qon davlat pedagogika instituti
tarix fakulteti Milliy g'oya va ma'naviyat
asoslari huquq ta'lim yo'nalishi 201- guruh
talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10910015>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 28-mart 2024 yil
Ma'qullandi: 30-mart 2024 yil
Nashr qilindi: 02-aprel 2024 yil

KEY WORDS

*Kibr, din, kibr darajalari, kibr
tushunchasini, silai rahm va uning
ko'rinishlari*

ABSTRACT

*Kibrlanishdan qaytish bo'yicha masalalar bo'yicha kibr
tushunchasini ochib berish va kibrni darajalari ma'nosini
tushuntirib berish*

Kibr haqida har xil tushunchalar bor ammo ularni umumlashtirib aytganda kibr tushunchasini bu insonning qandaydir o'zini boshqalardan ustun ko'rishidir. Masalan yaratgan biz insonlarni yaratdi bunda inson yani hamma insonlar bu dunyoga teng haq-huquqlarga egadir. Shu masala bo'yicha bunda olloh meni boshqalardan ustun qilib yaratdi deyish kibrga misol bo'ladi. Aslini olib qaraganda ilmni juda ham chuqur va qunt bilan o'rgangan va o'qigan odamda kibr bo'lmaydi. Bu qanday ma'noda ilmni ham ham ma'naviyat uchun ham jismoniy poklik uchun o'rgangan inson, ilmni dunyoviylikdan uzoqlashmagan holda va diniylik bilan bir qatorda o'rgangan odam. Diniylik tushunchasida islom dini. Masalan IIV - XII asrlarda yurtimizda dunyo tan olgan buyuk mutafakkir, olim, astranom va matematik olimlarimiz yetishib chiqqan ularga misol qilib Imon al Buxoriy, Imon At-Termiziy, al Farg'oniy, al Xorazmiy va boshqalar bunday insonlarda kibr bo'lmagan desak mubolag'a bo'lmas, chunki bular o'z navbatida islom ta'limotini ham juda chuqur bilishgan.

Ma'lumki, Alloh taolo Islomni insoniyatni yaxshilikka boshlash, odam zotini eng go'zal fazilatlar sohibi etib tarbiyalash maqsadida nozil qilgan.

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam bu haqida shunday marhamat qilganlar: "Men go'zal xulqlarni kamoliga yetkazish uchun yuborilganman".

Demak, kishi Islom dini ta'limotlariga rioya qilib yashar ekan, unda eng go'zal axloq va fazilatlar namoyon bo'lib boradi, o'z-o'zidan illatlar, yomon fe'l atvorlar yo'qolib boradi.

O'z navbatida Islom dini ta'limotida insonga nomunosib bo'lgan, insonlar o'rtasida ziddiyat va adovat urug'ini sepilishiga sabab bo'ladigan illatlar qattiq qoralanadi. Insonlarni bunday salbiy

fe'l atvordan zudlik bilan asrash, aks holda oqibati ayanchli bo'lishi muqarrar ekanligidan ogohlantiriladi.

Kibrni oshib ketgan darajalari: har doim o'zim g'olib bo'lay, har doim hamma narsa meni bo'lish, maslahatlarga beparvo bo'lish va quloq solmaslik, hech kim so'ramasa ham unga maslahat berish va tanbeh berish, so'z, fikr va g'oyasaida qat'iy bo'lish va uni o'zgartirmaslik,

32-bob. Rahm qilmaydigan kishining gunohi haqida

64. Jubayr ibn Mut'im (r.a.) Rasulullo? (s.a.v.)ning: "Silai rahm qilmaydigan kishijannatga kirmaydi", deganlarini rivoyat qildilar.65. Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilinishicha, Rasululloh (s.a.v.) shunday deb marhamat qilganlar: "Rahmon bo'lgan Allohdan insonlarga berilgan qarindoshlik rishtasi shunday der ekan: "Yo Rabb! Zulm ostida qoldim! Yo Rabb! Uzildim. Yo Rabb! Menga nisbatan (shunday-shunday yomon ishlar qilindi). Alloh taolo unga shunday javob berar ekan: "Seni uzganlarni tarqatib yuborasanmi va yaxshilik qilmaganlarga yaxshilik qilmasmisan?"

66. Sa'd ibn Sam'on (r.a.) aytadilar: "Men Abu Hurayra (r.a.)ning yosh bolalar va aqli yetuk bo'lmagan, yengil tabiatli kishilarning amirlik mansabida bo'lib qolisharidan panoh so'rayotganlarini eshitdim. Ibn Hasan Abu Hurayradan "Buning alomati nima?" - deb so'raganlarida, Abu Hurayra: "Buning alomati silai rahmning uzilishi, to'g'ri yo'lga boshlovchi kishiga itoat qilinmay, egri yo'lga boshlovchiga itoat qilinishi", deb javob berdilar".

33-bobdagi 67-hadis mazmuni 66-hadisdagi mazmun takrori bo'lib, hadis Abu Bakra (r.a.)dan naql qilingan.

Bu o'rinda silai rahm haqida gapirib ketsak. Silai rahm Alloh taolo bandalariga farz qilgan eng ulug' amallardan biri hisoblanadi. Avvalo ushbu so'zni kelib chiqishiga nazar soladigan bo'lsak, "sila" so'zi bog'lash-ulash ma'nosini anglatadi, "rahm" esa bachadon so'zining arabcha ko'rinishidir. Ushbi ikki so'zning jamlanishidan silai rahm so'zi kelib chiqqan. Bu esa qarindoshlar bilan aloqalarni bog'lash degan iboraga aylangan.

Insonlarga ota-onasi hamda farzandlaridan keyin yaxshilik qilishlari va aloqa o'rnatishlari vojib bo'lganlar bu qarindoshlar hisoblanadi.

Silai rahm kibrni yengishning bir usuli desak mubolag'a bo'lmaydi.

Silai rahming ko'rinishlari:

Qarindoshlarni ziyorat qilish

Da'vat qilsa, ijobat qilish. Ya'ni, mehmonga yoki biror yig'inga chaqirsa borishlik

Imkoniyati yetsa moddiy jihatdan yordam qilishlik

Imkoniyati bo'lmasa, hech bo'lmaganda shirin so'z bilan ko'nglini olishlik

Biror bir musibat yetganda yonida bo'lioshlik, xususan janoza va shu kabi ishlarga qatnashiklik

Kasal bo'lganda holidan xabar olish

Salom berishli

Xulosa o'rnida aytganda kibr tushunchasini bu insonning hech qachon yaxshilikka va ezgulikkka yetaklamaydi. Kibrni yengishda biz birinchi navbatda xalqimiz madaniyatiga va xalqimizning boy tarixiga suyanamiz. Chunki tariximizda deyarli barcha buyuk shaxslarda kibr bo'lmagan shuning uchun ham ularni dunyo tan olgan

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Imom al-Buxoriy " Al-adab al-mufrad" 32- bobi Rahm qilmaydigan kishining gunohi haqida
- 2." Silai rahm foydalari " <https://vaqf.uz/uz/lists/view/434>
3. "Kibrni yengishni o'rganing" <https://zamin.uz/hayot-tarzi/71671-kibrni-engishni-rganing.html>
- 4." Avjiga chiqqan kibrning ayrim alomatlar " <https://www.naqshband.uz/makolalar/kibr-yomon-odat>

